



ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA SIFAT DARAJALARI

Umarxonova Yulduzxon G'ayratjon qizi

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Arabshunoslik Oliy maktabi

Arab-ingliz filologiyasi 2-kurs 2-guruh talabasi

yulduzxonumarxonova12@gmail.com

91.692-53-52

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17172862>

Annotatsiya: ushbu maqola o'zbek va arab tillarida sifat darajalari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ular o'zaro qiyoslanadi, o'xshash va farqli jihatlari izohlanib, bir necha misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja, izofa, moslashgan aniqlovchi, أفعل من, أفعل.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу степеней сравнения прилагательных в узбекском и арабском языках. В статье проводится сопоставление, объясняются сходства и различия, а также анализируются примеры.

Ключевые слова: положительная степень, сравнительная степень, превосходная степень, изофа, согласованное определение, вес "أفعل", "أفعل من".

Annotation : This article is dedicated to the analysis of degrees of comparison of adjectives in Uzbek and Arabic. It provides a comparative study, explaining the similarities and differences between the two languages, and illustrates them with several examples.

Keywords: positive degree, comparative degree, superlative degree, izofa, agreed attribute, "أفعل" pattern, "أفعل من"

Kundalik hayotimizda biror narsa, buyum va shaxsning aynan o'ziga xos bo'lgan jihatlari maxsus belgilar, ya'ni sifatlar orqali ifodalaymiz. Ba'zan bu belgilar umumiylikka tegishli bo'lsa, bu holda ularni bir-biriga qiyoslagan holda farqlaymiz. Aynan mana shu belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi **sifat darajalari**, ana shunday ma'no ifodalovchi shakllar esa **daraja shakllari** deyiladi.¹ Ular biz tahlil qilmoqchi bo'lgan fe'llarda turlicha ko'rinish va songa ega, ushbu maqola orqali tafovut va o'xshashliklar o'rganiladi.

Arab tilida sifatlar uch xil darajaga ega:

1. **Oddiy daraja** – bu daraja turida belgi o'z me'yorida bo'ladi:

هذا البيت الصغير لمحمد – *Bu kichik uy Muhammadniki.*

في هذه الغرفة الجميلة ستارة حمراء – *Bu chiroyli xonada qizil parda bor.*

¹ O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.- T.: "LESSON PRESS", 2017.





2. **Qiyosiy daraja** – bu daraja turida belgi boshqa bir belgiga solishtiriladi, qiyoslanadi. Ular aniqlanmishning soni va jinsidan qat'iy nazar أَفْعَلُ vaznida yasaladi. Bunda belgi qaysi predmetning belgisiga qiyoslanayotgan bo'lsa, ucha so'z من predlogidan keyin keladi. Masalan,

الكتاب أكبر من المجلة – *Kitob jurnal dan kattaroq.*

الكتابة أنفع من النوم – *Yozish uxlashdan foydaliroq.*

أخي أنشط مني – *Singlim mendan chaqqonroq.*

Agar bir predmetning turli vaqtlar belgisini qiyoslash kelsa, bir predmet nomi ikki marta takrorlanadi, o'riniga unga son va jinsda mos bo'lgan birikma olmosh ishlatiladi. Masalan,

مدينتنا في هذا السنة أجمل منها في السنة الماضية

– *Shahrimiz bu yil o'tgan yildagidan chiroyliroq.*

Agar من predlogidan keyin bevosita fe'l kelsa, predlogdan keyin ما yulkamasi orttiriladi. Masalan,

الطقس اليوم أحر مما كان أمس

– *Ob-havo bugun kechagidan issiqroq.*

3. **Orttirma daraja** – bu daraja turida belgi boshqa bir nechta belgiga solishtiriladi. Orttirma daraja sifati ham oddiy darajadagi sifatni أَفْعَلُ vaznida solish bilan hosil qilinadi. Lekin u sifatlanmishning jinsi va soniga muvofiq ravishda o'zgaradi:²

Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
mz	أَفْعَلُ	أَفْعَلَانِ	أَفْعَالُ
mn	فُعْلَى	فُعْلَيَانِ	فُعْلَيَاتُ

Orttirma daraja sifati sifatlanmish bilan quyidagi usullarga birikadi:

1. Orttirma darajadagi sifat moslashgan aniqlovchi kabi sifatlanmishdan keyin keladi. Masalan,

الطالب الأفضل – *Eng yaxshi student,*

الطالبة الفضلى – *Eng yaxshi student qiz*

الطلاب الأفضلان – *Eng yaxshi 2 student,*

الطالبتان الفضليتان – *Eng yaxshi 2 studentka.*

الطلاب الأفضلون – *Eng yaxshi studentlar,*

الطالبات الفضليات – *Eng yaxshi studentkalar.*

2. Sifat bilan sifatlanmish izofa shaklini oladi va bunda orttirma darajadagi sifat muzof o'rnida keladi va har ikki jinsda o'zgarmay, أَفْعَلُ shaklini oladi. Sifatlanmish esa ko'plikda aniq holda muzof ilayh bo'lib keladi. Masalan,

²Баранов Х. Арабско-русский словарь. –М., 1985.





أَفْضَلُ الطُّلَّابِ – *Studentlarning eng yaxshisi*,
أَفْضَلُ الطَّالِبَاتِ – *Student qizlarning eng yaxshisi*.

3. Sifatlanmish bilan izofa shaklida moslashadi. Bunda sifat muzof bo'lib, sifatlanmish esa birlikda noaniq holda muzof ilayh bo'lib keladi. Masalan,

أَفْضَلُ طَالِبٍ – *Eng yaxshi student*,
أَفْضَلُ طَالِبَةٍ – *Eng yaxshi student qiz*.

أَفْعَلُ – فَعْلَى shaklidagi sifatlardan, belgini bildiruvchi sifatsoshlar va nisbiy sifatlardan qiyosiy va orttirma daraja sintaktik yo'l bilan, ya'ni أَكْثَرُ، أَشَدُّ kabi so'zlar va undan keyin solishtiriladigan belgi shu uzakdan hosil bo'lgan tushum kelishigidagi noaniq holda turgan masdar eroamida hosil qilinadi. Masalan,

هذه الوردة أشد حمرة من تلك – Bu atirgul narigisidan qizilroq.

أخي أقلّ اجتهاداً من صديقه – Ukam o'rtog'idan ko'ra kamroq tirishqoqdir.

أَفْعَلُ – يَوْمَانِ سَرٌّ – yomon sifatlardan qiyosiy va orttirma daraja sifati shu vaznida emas, shu sifatlarning o'zidan hosil bo'ladi. Masalan,

الصلاة خير من النوم – Namoz uxlagandan yaxshiroqdir.

شَرُّ الْبِلَادِ مَكَانٌ لَا صَدِيقَ بِهِ – Yurtlarning eng yomoni do'st yo'q bo'lgan yurtdir.³

O'zbek tilida ham sifatning quyidagi uch xil darajasi mavjud, ammo bu arab tilidan ozroq farq qiladi: 1) oddiy daraja; 2) ozaytirma daraja; 3) orttirma daraja.

Oddiy Daraja. Belgining odatdagi me'yorda ekanini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli oddiy daraja deyiladi: qizil, oq, shirin, toza.

Ozaytirma Daraja. Belgining me'yordan kam ekanini bildiruvchi shakli sifatning ozaytirma daraja shakli hisoblanadi. Ozaytirma daraja quyidagicha hosil qilinadi:


1) -roq qo'shimchasi yordamida hosil aylanadi; qoraroq, yaxshiroq, shirinroq kabi.

2) sifatning oddiy daraja shakli oldiga sal, biroz, picha, xiyla, nim so'zlarini qo'shish orqali hosil qilinadi: sal, shirin, xiyla kichik, nim pushti, nim qorong'i.

3) rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan -(i)mtir, -(i)sh qo'shimchalari yordamida ham ozaytirma daraja shakli yasaladi: ko'kimtr, oqish, ko'kish, qoramtir kabi.

Qora so'ziga faqat -mtir qo'shimchasi qo'shiladi, -(i)mtir, -(i)sh qo'shimchalari oq, ko'k, sariq, qizil so'zlariga qo'shiladi. Sariq va qizil so'zlariga -(i)mtir, -(i)sh qo'shimchalari qo'shilganda, *tovush tushishi va almashishi* kuzatiladi:

³ N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".:T- 1997





sariq + ish = sarg'ish, qizil + ish = qizg'ish, sariq + imtir = sarg'imtir. **-roq** qo'shimchasini -(i)mtir, -(i)sh qo'shimchalari bilan sinonim holda qo'llash mumkin: ko'kish – ko'kroq, qoramtir- qoraroq kabi. Shuningdek, -roq qo'shimchasi biroz, sal, ba'zan nim, och so'zlari bilan ham sinonim bo'lib keladi. Shuning uchun ko'pincha birining o'rnida ikinchisini qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, qizilroq - sal qizil, biroz qizil, och qizil kabi.

Esda saqlang: sifat darajalarini hosil qiladigan -roq, -(i)sh, -(i)mtir qo'shimchalari vazifasiga ko'ra lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi.

Orttirma Daraja. Belgining me'yordan ortiq ekanini bildirgan sifat shakli ortirma daraja deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi:

1) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan eng, g'oyat, juda, nihoyatda, bag'oyat, biram, benihoya, tim, liq, to'q, jiqqa so'zlari keltiriladi: juda qizil, g'oyat shirin;

2) oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: bus-butun, kap-katta, to'ppa-to'g'ri, qip-qizil, ko'm-ko'k, yam-yashil;

3) sifatning tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho'zish orqali hosil qilinadi: issiq –i:ssiq, achchiq - a:chchiq, uzun - u:zun, chiroyli- chiro:yli

Xulosa o'rnida shuni keltirish kerakki, sifat darajalari har ikki tilda xuddi yuqorida keltirilgan qoidalarga asoslangan holda yasaladi, qo'llaniladi, ulardagi o'zaro farqli va o'xshash jihatlarni esa keltirilgan qoidalarga asoslanib, bilib olish hech ham qiyinchilik tug'dirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баранов Х. Арабско-русский словарь. –М., 1985.
2. N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".:T- 1997.
3. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.- T.: "LESSON PRESS", 2017.
4. جورج تدقيق، كنعان الياس إعداد. إنكليزي - عربي: العالمية العربية قواعد معجم. أنطوان، الشدياق تاريخ بدون، لبنان مكتبة، مكرموت. ج.ش إنكليزية مراجعة، المسيح عبد هنري

